

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**JULMATOVA SAODAT JUR'ATJON QIZI**

**INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA  
IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika o'qitish metodikasi)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Julmatova Saodat Jur‘atjon Qizi**

Individual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik  
qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi ..... 3

**Джулматова Саодат Джур‘атжон кизи**

Методика формирования творческих способностей у будущих  
педагогов на основе индивидуального подхода ..... 25

**Julmatova Saodat Jur‘atjon qizi**

Methodology of formation of creativity skills in future pedagogues  
based on individual approach ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**JULMATOVA SAODAT JUR'ATJON QIZI**

**INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA  
IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika o'qitish metodikasi)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8941 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.guldu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	Botirova Shaxlo Isamiddinovna pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar	Xadjayeva Maqsuda Sultanovna pedagogika fanlari doktori, professor Olimov Shirinboy Sharofovich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "01" 03 soat 10<sup>o</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: gfsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (03 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:120100, Guliston sh, 4-mavze. Tel.:(99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" 02 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "17" 02 dagi 03 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Mamatqulov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

A.A.Axrorov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

F.G.Sharipov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik nafaqat ta'lim mazmunini boyitish, balki pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatida yangi yondashuvlarni qo'llash qobiliyatini rivojlantirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimi ijodkor va innovatsion fikrlaydigan pedagoglarni talab qilmoqda. Individual yondashuv asosida shakllantirilgan ijodiy qobiliyatlar pedagoglarni zamonaviy ta'lim jarayonlarida raqobatbardosh va samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Shuning uchun, bo'lajak pedagoglarda ijodiy qobiliyatlarni shaxsiy yondashuv asosida shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ta'lim tizimini takomillashtirish va kelajak avlodni tarbiyalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida quyidagi xalqaro ta'lim tashkilotlarida bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodologiyasi bilan bog'liq masalalar yuzasidan tadqiqot ishlari olib boriladi. Yevropa Ta'lim Tadqiqotlari Assotsiatsiyasi (EERA) (Germaniya) EERA ta'lim sohasida tadqiqotlar olib boradi, jumladan, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid masalalar, shuningdek, pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak pedagoglarning individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi bo'yicha meyoriy asoslar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish imkoniyati kengaytirildi. Natijada individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

D.M.Maxmudova, Sh.T.Boltayeva, D.B.Yakubjanova, A.N.Xudayberganov, B.D.Abduvoitovich, M.M.Nurillayevna, S.Jumanov, T.Zebo, S.S.Djurayevalar talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalar, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi, badiiy loyihalash kursini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, umumiy orta ta’lim muassasalarida oquvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini badiiy guruhlarda shakllantirish, oliy ta’limda ma’naviy-marifiy ishlar orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga oid masalalar; G.Hojikarimova, D.Urmonova, X.N.Soatmuratovna kabi olimlarning tadqiqot ishlarida esa o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlari, takrorlash va mustahkamlash darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mexanizmi, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan G.A.Горбунова, A.A.Ахлаханова, M.Л.Сердюк, E.Е.Щербакова, B.B.Плещев, O.A.Нечаева kabi olimlar tomonidan maktab o‘quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tabaqalashtirilgan va individual yondashuv uchun innovatsion texnologiyalar, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida loyiha usuli, universitetning pedagogik ijodiyotini shakllantirish, talabalarni kasbiy tayyorgarlik sharoitida, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari, sinergetik yondashuv doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga oid masalalar ochib berilgan.

Xorijlik olimlardan O. Filonenko, G.S.Camerilova, A.Gumuliauskienė, N.Kichuk, M.Zivitere kabi olimlar oliy ta’lim muassasalarining bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy rivojlantirish, oliy pedagogik ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim muassasalari o‘qituvchilarning mustaqil faoliyati, salohiyati, ijodkorligini ifodalash va rivojlantirish asosida kasbiy ijodiyotini rivojlantirish, o‘quv jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etganlar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ilmiy tadqiqotlarda talabalarda kasbiy va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq masalalarining ayrim jihatlari

ochib berilgan, biroq individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Zamonaviy pedagogika masalalari va uni o'qitish uslubiyati" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak redagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi va kasbiy sifatlarni oshirish texnologiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini va kasbiy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuv modelini takomillashtirish;

talabalarining individual yondashuv asosida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va professional kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyasini va kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Nukus davlat pedagogika institutining jami 438 nafar respondent-talabari jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasini rivojlantirish jarayonining mazmuni, vositalari, texnologiyasi, metodlari va strategiyalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Bu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy-metodik va pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, sotsiometrik (suhbat, anketa, test); shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov; pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak redagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning umumkasbiy va sohaga yo'naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan faoliyati tuzilmasi komponentlari va tashkiliy-uslubiy asoslari aniqlashtirilgan hamda amaliyotdagi holati tahlil qilingan;

talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini interfaol ta'lim muhitida shakllantirishda individual yondashuvning integrallashgan metodik tizimi va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan, reproduktiv, ijodiy- izlanish va novatorlik bosqichlari mazmuni,

shuningdek, jarayon samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasi takomillashtirilib, didaktik talablari belgilangan;

bo'lajak redagoglarning individual yondashuv asosida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va professional kompetentligini rivojlantirish modeli hamda pedagog kadrlarning ijodkorlik kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi pedagogik mexanizmlar, strategiyalar va innovatsion ta'lim jarayonining samaradorlik darajasi aniqlanib, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi tamoyillari va strategiyalari aniqlangan, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari yordamida ijodkorlik va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida rivojlantirish mazmuni, shakllari, mexanizmlari, kasbiy mahoratining shakllanganligini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqilgan, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni baholashga yo'naltirilgan mezonlarini joriy etish yo'llari ekonometrik bashoratlash metodikasi orqali modernizatsiya qilingan;

ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning informatsion-metodik tizimi takomillashtirilgan;

talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol ta'lim muhitini shakllantirish yuzasidan trenerlik dasturlari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra izohlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, ma'naviy rivojlanish jarayonining mantiqiy izchilligi, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, individual yondashuv asosida talabalarning ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, tadqiqot natijalarining ishonchiligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasini va kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik, psixologik asoslari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy rivojlanish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik-didaktik jihatlarining takomillashtirilganligi, tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi zamonaviy yondashuvlarning ilgari surilganligi, oliy ta'lim muassasalarida



individual yondashuv asosida ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlash, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmun-mohiyatini takomillashtirish va professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari samaradorligini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan tamoyillar, mezonlar, ishlab chiqilgan pedagogik jarayon modeli, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning umumkasbiy va sohaga yo'naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuni asosida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-son ruxsatnomasi). Natijada, ta'lim sohasida bo'lajak pedagogik kadrlar tayyorlash bosqichlarining tashkiliy-uslubiy faoliyatining tahlil va tadqiqiy xususiyatlari va amaliyotdagi holati individual, shaxsga yo'naltirilgan, interfaol yondashuvlari asosida takomillashtirilgan;

talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini interfaol ta'lim muhitida shakllantirishda individual yondashuvning integrallashgan metodik tizimi va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan, reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari mazmuni, shuningdek, jarayon samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Evropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar instituti 2024-yil 7-dekabr 2708/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, individual yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etilib, bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik va kasbiy sifatlarini oshirishga oid bilimlari rivojlantirilgan;

bo'lajak pedagoglarning individual yondashuv asosida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va professional kompetentligini rivojlantirish ga oid taklif va tavsiyalardan Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Jizzax politexnika instituti 2024-yil 10-dekabr 03-2388-2377-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish modeli hamda pedagog kadrlarning ijodkorlik kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari, samaradorlik bloklari funksiyalarini o'zaro muvofiqlashtirish va innovatsion ta'lim jarayonida qo'llash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 136 sahifa matn, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati va kasbiy zarurati, bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini individual yondashuv asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Hozirgi kunda talabalarda ijodkorlik qobiliyatini oshirish ko'nikmasini shakllantirish orqali ularga tobora murakkablashib borayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkoniyatini yaratadi. Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limda yodlashdan ko'ra, tadqiqot va ixtiro qilishni qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchining ijodiy faoliyatidagi samaradorlik uning ish uslubidagi ijobiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlaydi. Ijodkorlik (ijodiy) faoliyat natijalarining texnologik jihatdan ta'minlanganligi, ularni o'lchash, qayd etish va kuzatishning qulayligi, shuningdek, o'qitishning yangi usul va yondashuvlarini baholash juda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ijodkorlik faoliyatining qadri esa ta'lim oluvchilarning tasavvurini kengaytirish va ularni to'laqonli shakllantirishga qaratilganidadir. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilaridagi ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanishi ham pedagoglar tomonidan ijodiy ta'lim muhitining loyihalashtirilishiga bog'liqdir. Kasbiy faoliyatda pedagogning ijodkorligi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Me'yoriy hujjatlar (o'quv fanlari bo'yicha DTS, o'quv dasturi va rejalari)ni tayyorlash; o'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish; ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash; O'quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish; ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli,

jo'shqin tashkil etish; ilmiy tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish; ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish; ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish; davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o'tish. Pedagogik ijodkorlik quyidagi ikki holatni ta'minlashi zarur: 1) o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalarning e'tiborini fan asoslarini o'rganishga jalb etish; 2) o'qituvchilarga talabalarda ijodkorlik fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirish uchun xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish.

Pedagogning ijodkorlik sifatleri:

Ijodkorlik – shaxs faoliyati va uning natijasi, muayyan yangilikning ahamiyati va foydaliligini belgilaydi;

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan va aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs;

Ijodkorlik shaxs – ijodkorlikni jarayon yoki natija sifatida namoyon etuvchi, masalalarni yechishda nostandart usullardan foydalana oladigan, o'ziga xos yondashuvlarni tashkil etish va yangiliklarni ilgari surishga qodir shaxs.

Dunyo ta'lim taraqqiyotining tez sur'atlarda rivojlanishi ta'lim jarayonida innovatsion va ijodkorona yondashuvni talab etmoqda. Chunki har qanday jamiyatning taraqqiyoti va yo'nalishi ijodkorlik va innovatsion g'oyalar ta'sirida shakllanib, har bir sohada ijodkorlikka ehtiyoj ortib bormoqda. AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim jarayonlari innovatsion-ijodkorlik yondashuv asosida olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq va oliy ta'lim xodimlari bilan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimidagi muhim vazifalarni muhokama qilib, "Bugungi kunda ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim," degan fikrlarni bildirdi. Shuningdek, 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatida ham Sh.M. Mirziyoyev ta'lim va tarbiyaning bir-biriga bog'liqligini ta'kidlab, "Sharqona qarashlarimizda ta'lim va tarbiyani ajratib bo'lmaydi, bu esa o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi", dedi. Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlari rivojlangan holda, ular zamonaviy ta'lim talablariga javob bera olishadi. Ijodiy ko'nikmalar zamonaviy kasbiy faoliyatda, xususan, yangi metod va texnologiyalarni samarali o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan ijodiy fikrlash pedagoglarning ishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish, ularni qiyinchiliklarga tayyorlash va ta'limdagi yuksak maqsadlarga erishishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, ijodiy shaxsni rivojlantirishda ijodiy faoliyat muhim ahamiyatga ega, chunki shaxs aynan faoliyat davomida rivojlanadi. Shuning uchun biz L.S. Vygotskiy va A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga murojaat qilamiz. Ularning fikriga ko'ra, shaxs insonning ijtimoiy faoliyat tizimidir va u ikki tarkibiy qismga ega: *ruhiy* (ong) va *amaliy* (xulq-atvor). Bu shuni anglatadiki, shaxsning asosi insonda mujassamlashadi va shaxsning ijtimoiy xususiyati uning mohiyatini belgilaydi. Faoliyat bilan bog'liq shaxsning eng muhim xususiyatlari bu uning ongi

va xulq-atvoridir. Demak, asosiy shaxsiy jihatlar motivlar, qarashlar, fikrlar, qiziqishlar, e'tiqodlar, ko'nikmalar va mahorat, ya'ni insonning ichki dunyosidir.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimining barcha darajalarini, shu jumladan, oliy ta'limni isloh qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi – ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan tashabbuskor shaxsni shakllantirish. Bu maqsad ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida kelajak o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o'z ichiga oladi. “Ijodkor shaxs”, “ijodiy yondashuv”, “ijodiy yutuqlar”, “ijodiy fikrlash”, “ijodkorlikning namoyon bo'lishi” kabi tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda hamda zamonaviy kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini belgilashda asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi va eng yaxshi mutaxassislarni ajratib turadi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida, kelajakni belgilovchi yoshlarni har tomonlama yetuk, komil, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli qilib yetishtirish yo'lida amalga oshirilayotgan katta bunyodkorlik ishlarida musiqiy ta'limda faoliyat yurituvchi pedagog xodimlarning yuqori ilmiy-metodik bilim va yuksak mahoratga ega bo'lishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlardan Sh.S. Sharipovning ilmiy ishlarida ijodkorlik tushunchasi bilan bog'liq ravishda talqin qilingan. Muallif talabalarda ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini mehnat va kasb ta'limi mutaxassislari misolida bayon qilgan. Amerikalik olim D. Veksler ijodkorlikni shunday tushuntiradi: “Ijodiy fikrlash insonga bir muammoga nisbatan bir nechta yechimlarni topish imkoniyatini yaratadi hamda bir xil, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalarning noyobligini tushunishga yordam beradi”. Pol Torrens esa ijodkorlikni tafakkur terminlarida izohlab, ijodiy fikrlashni “qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, ularning gipotezalarini tuzish, tekshirish va baholash” kabi jarayon sifatida tushuntiradi. Angliyalik tadqiqotchi Depati Patti talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish uchun quyidagi yo'llarni taklif qiladi:

ijodkorlik – fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni fikrlash ravonligi, moslashuvchanlik, yaratuvchanlik;

amaliy ijodkorlik – harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni talabalardagi ijodkorlikni to'sib turuvchi omillarni yo'q qilish;

ijodkorlik faoliyat jarayonlarini tashkil etish – talabalarni nostandart vaziyatlar bilan to'qnashtirish;

ijodkorlik mahsulotlardan foydalanish – ilg'or tajribalar, ixtirolar va texnologiyalarni qidirib, amaliyotda qo'llash.

“Pedagogik ijodkorlik – pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda muhim sifat bo'lib, u o'qituvchining bilish faolligi, nostandart fikrlashi, mustaqilligi va ijodiy qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi”. Pedagogika va psixologiya sohalarida pedagogik ijodkorlik turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Masalan, A.V.Petrovskiy va A.Maslou tadqiqotlarida pedagogik ijodkorlik shaxsning muloqotga kirishuvchanlik qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'rganilgan.

Kompetentli yondashuv pedagogik tadqiqotchilarning ko'plab asarlarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim element sifatida keltirilgan. V.A. Slastenin va V.A. Kan-Kalikning izlanishlariga ko'ra, kompetentli yondashuv

talabalarga ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq tadqiqotchilik va amaliy mashg'ulotlar asosida ish olib borish kerak. Bu usul ijodiy muvaffaqiyatga erishishda qo'llanilsada, barcha talabalarga bir xil darajada samarali bo'lmasligi mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, Rodjers va Maslou ta'kidlaganidek, talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali ijodiy qobiliyatlarini oshiradi. Bu, ayniqsa, mustaqil qarorlar qabul qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlaydi. Lekin bu uslub individual vaqt va resurs talab qilishi mumkin, bu esa ommaviy ta'lim tizimida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kasbiy faoliyat jarayonida ijodkorlik kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan mutaxassisning kelajakdagi yo'li aniqlanadi. Olimlar katta yoshli maktab o'quvchilari davrini ijodkorlik rivojlanishi uchun eng qulay davr deb hisoblaydilar. Ammo bu, talabalik davrida ijodkorlikni rivojlantirish imkoni yo'q degan ma'noni anglatmaydi. Talabalik davrida ijodkorlik rivojlanishining o'ziga xos jihati bu vaqtda mutaxassislikka yo'naltirilgan ijodiy qobiliyatlar shakllanishi hisoblanadi. Bunda kasbiy faoliyatga qiziqish talabalarning bilish faolligi, o'z hayot yo'lini aniqlash va uni amalga oshirish, hamda individuallikni shakllantirish bilan uyg'unlashadi. Ma'lumki, har bir shaxs kasbiy bilimlarning o'sishi orqali muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shunga ko'ra, shaxs ijodkorlik bilan o'z kasbiy faoliyatini boyitishi, yangilashi va to'ldirishi zarur. Bunday ko'nikmalar talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasalarida o'zlashtiriladi va ular butun hayotlari davomida bu tajribani kengaytirishadi. Demak, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki sohaviy kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatni modellashtirish, xususan talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishga kompetentli yondashuv asosida yechim topishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy kompetentligi ularning talabalarga nisbatan insonparvarlik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar o'qituvchiga nisbatan ham shakllanadi, bu esa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining poydevoriga aylanadi. Talaba idroki o'qituvchi uchun asosiy qadriyat sifatida qabul qilinib, talabalarning qiziqishlari, ichki dunyosi, ehtiyojlari, layoqatlari va individual xususiyatlarini o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy-shaxsiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar shaxsiyatini rivojlantirishda oliy pedagogik ta'lim tizimida o'quv jarayonining ijtimoiy qadriyatli yo'nalishga ega bo'lishi zarur. Buni amalga oshirish uchun ta'lim jarayoni insonparvarlik, demokratiya, tabiatni anglash, madaniyatni anglash va individual yondashuv kabi tamoyillarga asoslanishi kerak. Bunday yondashuv ta'lim jarayoni mazmunini yangi bosqichga olib chiqadi va uni chuqurlashtiradi. Mazkur mazmun doirasida uchta o'zaro bog'liq blok mavjud: 1) umummadaniy; 2) psixologik-pedagogik; 3) fanga oid bloklar. Har bir blok turli modullar orqali talabalarga taqdim etiladi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayonida mustaqil bilim olishga yo'naltirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ularning faoliyatiga ijodiy

yondashish muhim pedagogik shartlardan sanaladi. Quyida talabalarning pedagogikada ijodiy kompetentligini oshirish tuzilmasi va omillari jadvalini ko‘rib chiqamiz (1-jadval).

Bu tuzilma va omillar ijodiy kompetentlikni shakllantirish va uni rivojlantirishda asosiy rol egallaydi. Talabalar o‘rtasida ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishda ta‘lim muhiti, metodologiya va murabbiylikning o‘rni muhimdir.

## 1-jadval

### Talabalarning pedagogikada ijodiy kompetentligini oshirish tuzilmasi

Tarkibiy qismlari	Ta‘rifi	Omillar
<b>Bilim va nazariy asos</b>	Ijodiy faoliyatga bog‘liq bilimlar, nazariy tushunchalar va metodologiya.	Ta‘lim dasturlari, fanlararo yondashuvlar.
<b>Tasavvur va g‘oyalar</b>	Yangi g‘oyalar va innovativ yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash qobiliyati.	Ilhom berish muhiti, murabbiylik yordami.
<b>Ko‘nikma va malakalar</b>	Ijodiy faoliyatga bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni egallash.	Amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy treninglar.
<b>Mustahkamlik va motivatsiya</b>	Ijodiy faoliyatga intilish va barqarorlik, muvaffaqiyatga erishishda sabrlik.	Motivatsion tadbirlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.
<b>Tanqidiy fikrlash</b>	Yangi g‘oya va qarorlarni tahlil qilish, sabab-oqibatni anglash qobiliyati.	Mushohada mashg‘ulotlari, guruhli muhokamalar.
<b>Ijtimoiy hamkorlik</b>	Jamoada ishlash, o‘zaro muloqot va hamkorlik qilish qobiliyati.	Guruhli loyihalar, interfaol o‘qitish.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda interfaol o‘qitish metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini loyihaga asoslangan ta‘lim orqali shakllantirish tamoyillari, interfaol ta‘lim metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish mazmuni va didaktik imkoniyatlari, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini pedagogik jarayonda shakllantirishning samarali usullari haqida so‘z yuritilgan. Bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta‘lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ijodiy qobiliyatlar, talabalarning o‘z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilish va yangiliklar yaratish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Loyiha asosidagi ta‘lim esa, talabalarga real muammolarni yechishga yordam beradigan, tajribali va amaliy yondashuvlarni taqdim etadigan bir ta‘lim uslubidir. Ushbu tadqiqotda, loyiha asosidagi ta‘lim tamoyillari orqali bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy prinsiplari tahlil qilinadi. Loyiha asosidagi ta‘lim – bu talabalarning o‘zlarini faol ishtirok etishlariga, o‘z g‘oyalarini amalga oshirishlariga, hamkorlik qilishlariga imkon beruvchi bir ta‘lim modeli. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o‘z loyiha ishlarini

bajarish jarayonida yangiliklar yaratish, tanlov qilish va qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladilar. Shuningdek, bu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishi bilan birga, shaxsiy va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham o'stiradi. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish prinsiplari quyidagilardan iborat:

*Muammoli yondashuv:* Loyiha asosida ta'lim jarayonida talabalarga real hayotdagi muammolarni yechishga qaratilgan vazifalar berilishi zarur. Bu talabalarning ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

*Hamkorlik va jamoaviy ish:* Talabalarning guruhlarga bo'linib, birgalikda loyiha ustida ishlashlari ularning kommunikativ ko'nikmalarini oshiradi. Hamkorlikda ishlash ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va o'zaro fikr almashish imkonini beradi.

*Amaliy tajriba:* Loyiha asosidagi ta'lim jarayonida talabalarning amaliy tajribalarini oshirishga e'tibor berilishi zarur. Talabalar amaliyotda o'z g'oyalarini sinab ko'rish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

*Refleksiv yondashuv:* Talabalarga o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash imkonini berish ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Refleksiv yondashuv – talabalarga o'z muvaffaqiyatlari va xatolarini tushunishga yordam beradi.

*Innovatsion yondashuv:* Loyiha asosida ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish – talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli resurslar va multimedia vositalari – talabarga o'z g'oyalarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda loyiha asosidagi ta'lim tamoyillari muhim o'rin egallaydi. Muammoli yondashuv, hamkorlik va jamoaviy ish, amaliy tajriba, refleksiv yondashuv va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olgan bu tamoyillar talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda samarali bo'ladi. O'quv jarayonida ushbu tamoyillarning qo'llanilishi bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar bo'lishlariga tayyorlaydi. So'nggi yillarda pedagogik izlanishlar natijasida ushbu ta'lim turi talabalar uchun eng muhim bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni oshiruvchi mahsuldor texnologiya ekanligi o'z isbotini topdi va uni ta'lim jarayonida qo'llashga qiziqish ortib boshladi. Hozirgi kunda yangi ta'lim standartlariga o'tish oliy ta'lim muassasalari oldiga yangi vazifalar qo'yimoqda. Ular ta'lim jarayoni oldiga zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarini, mexanizmlarini, o'qitish usullarini izlab topish va joriy qilish talablarini qo'yimoqda. Chunki, ta'limning an'anaviy tizimi tayyor bilimlar translyatsiyasiga asoslanganligi tufayli nazariy va amaliy vazifalarni mavjud algoritmlar va sxemalar bo'yicha yechishga qaratilgan va buning natijasida talabalarda o'z ustida ishlash va olgan bilimlarini takomillashtirish, rivojlanish masalalariga kam yo'naltirilgan.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini loyiha asosidagi ta'lim orqali shakllantirishning prinsiplari bo'yicha olib borilgan tadqiqotimizda loyiha asosidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va uning ijodiy qobiliyatlarni

rivojlantirishdagi ahamiyati o‘rganildi. Ushbu yondashuv talabalarning faol ishtirokini, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy yechimlar topish mahoratini va jamoada samarali ishlash ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol o‘qitish jarayonida talabalarda ijodkorliklikni rivojlantirishda innovatsion o‘qitish metodlari, xususan, talabalar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakllari, metodlari va vositalari muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tadqiqot ishlari davomida talabalarda ijodkorliklikni rivojlantirishga xizmat qiladigan choralar yuqorida keltirilgan bosqichlar misolida quyidagi yo‘nalishlarda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.


<b>Birinchi yo‘nalish</b>	talabalarni “ijodkorlik”, “ijodkorlik faoliyati”, “pedagogik ijodkorliklik” kabi tushunchalarning mazmuni, shuningdek, ta’limdagi innovatsion islohotlarning mohiyati bilan tanishtirish, ularni anglash, ijodkorliklikka bo‘lgan moyillikni shakllantirishga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradigan choralar.
<b>Ikkinchi yo‘nalish</b>	talabalarda ijodiy-izlanish, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, ijodkorliklik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy choralar.
<b>Uchinchi yo‘nalish</b>	O‘zlashtirilgan nazariy bilimlar va shakllangan ko‘nikmalar, malakalar asosida talabalarda ijodkorlikning rivojlanish darajasini tashxis qilishga qaratilgan choralar majmuasi (2-jadval)

Interfaol o‘qitish metodlari an’anaviy o‘qitish uslubidan yana shu jihati bilan farqlanadiki, bunda faqatgina avval o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash emas, balki o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat asosida yangi bilimlarni egallash jarayoni amalga oshiriladi. Interfaol o‘qitish metodlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi: muammoli bayon; keys-stadi; ishchan o‘yinlar; rolli o‘yinlar; POPS-formula; karusel; televizion tok-shou uslubidagi munozara; qarorlar daraxti; blits-so‘rov; o‘quv munozaralari; Suqrot (Sokrat) dialogi; loyihalash; fikrlar shkalasi; video-metod va boshqalarni qamrab oladi. Shuningdek, quyida biz oliy ta’lim muassasalarida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir qator interfaol o‘qitish metodlari haqida fikr yuritimiz. Aniq vaziyatlar tahlili (AVT) yoki keys-stadi (case-study) – bu ta’lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiruvchi samarali interfaol usul. Keys metodidan iqtisod va biznes boshqaruvini o‘rgatishda keng foydalaniladi. Keys – aniq vaziyatlar tahlili yoki “vaziyatning aniq tasviri”ni ifodalaydi. Bu metod nemis tajribasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimida eng samarali usullardan biri hisoblanadi va qaror qabul qilish hamda muammoni to‘g‘ri hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu usulning maqsadi – ta’lim oluvchilarni axborotlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, muqobil yechimlarni tanlash, baholash va yechim yo‘lini topish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Tadqiqotni amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan model asosida bo‘lajak pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish jarayoni samaradorligini aniqlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va diagnostik vositalari aniqlashtirildi. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon



bo'lib, bu jarayon o'zining turli darajalarini qamrab oladi. Ushbu darajalar quyidagicha tasniflanadi (2-jadval):

Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish darajalari *reproduktiv, qidiruv-tahliliy, ijodiy va innovatsion* bosqichlarga bo'linadi. Har bir daraja o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab qiladi. Ta'lim jarayonida har bir talabani ijodkorlikka undash va ularning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biridir.



**1-rasm. Bo'lajak pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish modeli**

<b>1. Reproduktiv daraja</b>	Bu darajada talabalar o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va qayta ishlashga asoslangan faoliyatni amalga oshiradilar. Talabalar mavjud materiallar va ko'rsatmalarga tayanadi, ijodiy yondashuv kamroq ifodalanadi. Ushbu darajaga xos xususiyatlar: Mavjud bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash; qabul qilingan ko'rsatmalarni to'liq bajarish; shablonlarga asoslangan yechimlarni topish.
<b>2. Qidiruv-tahliliy daraja</b>	Talabalarning qobiliyati keyingi bosqichga ko'tarilib, ular o'z faoliyatlarida mustaqil fikrlashni va muammolarni tahlil qilishni boshlaydilar. Ushbu darajada ijodiy jarayonning ilk belgilari namoyon bo'ladi: - Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; - mavjud bilimlarni yangi sharoitlarga moslashtirish; - bir nechta yechimlarni ko'rib chiqish va ular orasidan maqbul variantni tanlash.
<b>3. Ijodiy daraja</b>	Bu daraja talabaning ijodiy qobiliyatlari shakllanishining yuqori bosqichini aks ettiradi. Talabalar o'z bilimlari va tajribalaridan kelib chiqib, yangi g'oyalar ishlab chiqadi va mustaqil ravishda ijodiy yondashuv asosida faoliyat olib boradi: - O'ziga xos va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish; - muammolarni o'zigaxos usulda hal qilish; - yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish.
<b>4. Innovatsion daraja</b>	Bu daraja ijodkorlikning eng yuqori ko'rinishini aks ettiradi. Talabalar mustaqil ravishda yangi usullar va texnologiyalarni yaratadilar, ularni amaliyotda qo'llaydilar. Ushbu darajada quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: - Yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va sinovdan o'tkazish; - kollektiv faoliyatda yetakchilik qilish va boshqalarni ijodiy yondashuvga rag'batlantirish; - original g'oya va loyihalarni amalda tatbiq etish.

Demak, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalash interfaol o'qitish jarayonining tarkibiy tuzilishi, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalarini qo'llash jarayonining uch bosqichi, interfaol mashg'ulotlarning jihatlari, o'quv jarayonini tashkil etish modeli hamda diagnostika metodikasiga alohida e'tibor qaratilishi pedagogik jarayonning samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijodkorlik qobiliyatlarni diagnostika qilish bosqichlari o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashda alohida ahamiyatga ega. Demak, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalash interfaol o'qitish jarayonining tarkibiy tuzilishi, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalarini qo'llash jarayonining uch bosqichi, interfaol mashg'ulotlarning jihatlari, o'quv jarayonini tashkil etish modeli hamda diagnostika metodikasiga alohida e'tibor qaratilishi pedagogik jarayonning samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, hamkorlikda va o'zaro aloqada ishlash, muqobil takliflarni baholash va pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish orqali nazariy bilimlar va amaliyot birligi ta'minlanadi. Shuningdek, biz, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning diagnostik tizimini tahlil qilgan holda, quyidagi modelni takomillashtirishga harakat qildik (1.-rasm).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish tizimi samaradorligi”** deb nomlangan bo'lib, bu bobda talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish vazifalari, bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorlik ko'rsatkichlari bayon etilgan. Shuni ta'kidlash zarurki, ya'ni *trening* nazariy



bilimlarni amaliy faoliyat asosida o‘zlashtirish imkonini beruvchi ta’lim shakli hisoblanadi. U talabalar uchun pedagogik-psixologik bilimlarni amalda sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Trening jarayonlarida talabalar mantiqiy fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘zini nazorat qilish va boshqarishdagi kamchilik va yutuqlarini aniqlaydi. Treninglar, *birinchidan*, ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlariga nisbatan samaraliroq bo‘lib, unda talabalar yashirin qobiliyatlari, iste’dodlari va ijodiy xususiyatlarini namoyon qilishi, shuningdek, tajriba orttirishi mumkin. *Ikkinchidan*, talabalarni trening shaklidagi turli faoliyatlarga jalb etish ularga nafaqat “kuzatish va o‘rganish”, balki tajriba almashish, ijodiy qobiliyatlarini baholash va solishtirish imkoniyatini yaratadi. *Uchinchidan*, trening mashg‘ulotlari orqali talabalar ijodkorlikni rivojlantirishga munosabatlarini o‘zgartiradi. Talabalar yangilikni shunchaki “o‘zlashtirish” emas, balki asosiy g‘oyalarni ajratib olish va o‘zlarining individual fikrlarini shakllantirish jarayoni sifatida tushunib yetadilar. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda foydalanish mumkin bo‘lgan onlayn ta’lim platformalari 3.-jadval):

3-jadval

<b>Coursera</b> <b>Veb-sayt:</b> <b><a href="https://www.coursera.org">https://www.coursera.org</a></b>	Tavsif: Coursera platformasi dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan taklif etilgan kurslarni o‘z ichiga oladi. Bu platforma pedagogik jarayonlarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan ko‘plab kurslarni taklif etadi.
<b>EdX</b> <b>Veb-sayt: <a href="https://www.edx.org">https://www.edx.org</a></b>	Tavsif: EdX platformasi bepul va pulli kurslar orqali ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni taqdim etadi. Ayniqsa, o‘qituvchilar uchun innovatsion metodlarni o‘rganishga qaratilgan kurslar mavjud.
